



UDK: 32(075.1)

Bekzod DJAMIYEV,
Dotsent, Olmaliq davlat texnika instituti, Olmaliq, O'zbekiston

Renessans ta'lim universiteti professori, f.f.d O.Musayev taqrizi asosida

SPECIFIC ASPECTS OF THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE MULTI-PARTY SYSTEM IN UZBEKISTAN

Annotation

This article analyzes the specific aspects of the formation and development of the multi-party system in Uzbekistan. It also discusses how the multi-party system contributes to the development and strengthening of democratic institutions such as free and fair elections and civil liberties, and plays an important role in ensuring the rule of law in society and protecting human rights.

Key words: political party, democracy, democratic elections, democratic society, civil society, parliament, parliamentarism, political pluralism.

СВОЕОБРАЗНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ МНОГОПАРТИЙНОЙ СИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье анализируются конкретные аспекты формирования и развития многопартийной системы в Узбекистане. Также рассматривается, как многопартийная система способствует развитию и укреплению демократических институтов, таких как свободные и справедливые выборы и гражданские свободы, и играет важную роль в обеспечении верховенства права в обществе и защите прав человека.

Ключевые слова: политическая партия, демократия, демократические выборы, демократическое общество, гражданское общество, парламент, парламентаризм, политический плюрализм.

O'ZBEKISTONDA KO'PPARTIYAVIYLIK TIZIMI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS JIHLTLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimi shakllanishi va rivojlanishining o'ziga xos jihatlari tahlil etilgan. Shuningdek unda ko'ppartiyaviylik tizimi erkin va adolatli saylovlar, fuqarolik erkinliklari kabi demokratik institutlarni rivojlantirish va mustahkamlashga yordam berishi va jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash va inson huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynashi borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: siyosiy partiya, demokratiya, demokratik saylovlar, demokratik jamiyat, fuqarolik jamiyati, parlament, parlamentarizm, siyosiy plyuralizm.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, "Yangi O'zbekiston"ni barpo etish g'oyasi doirasida jamiyatni demokratlashtirish, davlat hokimiyati va boshqaruvini ochiqshirish, fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar mazkur mavzuning amaliy va nazariy ahamiyatini yanada oshirmoqda. "Ko'ppartiyaviylik tizimini mustahkamlash, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning ta'sirini oshirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish" [4]. vazifasi bugungi kunda obyektiv ijtimoiy zarurat tufayli yuzaga kelmoqda. Mamlakatimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unlashgan demokratik siyosiy tizim shakllantirilib, plyuralizm, bahs-munozaralar, sog'lom raqobatga asoslangan siyosiy muhitni vujudga keltirish orqali ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligiga erishish, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash va fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonunida shunday talqin berilgan: "Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yogba chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir" [2]. Siyosiy partiya xalqdan yoki davlat hokimiyatidan ustun turadigan kuchli tashkilot bo'lishi mumkin emas. Ular davlat bilan xalq o'rtasidagi vositachi bo'lib, xalqning siyosiy madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir qancha moddalari partiyalar faoliyati uchun konstitutsiyaviy asos bo'lib xizmat qiladi. Siyosiy partiya tashkil etish huquqi

Konstitutsiyaning 39-moddasida mustahkamlangan. Konstitutsiyaning siyosiy partiya uchun uyushish, siyosiy partiya ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqlariga egaligi, ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatni siyosiy partiyadagi huquqlari to'g'risida so'z yuritilgan "Fuqarolik jamiyati institutlari" bobida (13-bob) siyosiy partiyalar ro'yxatdan o'tkazilishi zarurligi qayd etiladi. Konstitutsiyada, shuningdek siyosiy partiyaning Konstitutsiyaga qarshi xatti-harakatlari taqiqlanadi (71-modda). Siyosiy partiya uchun nisbatan davlatning huquqlari (74-modda), partiyalarga a'zo bo'lish ixtiyoriyligi (73-modda), demokratik faoliyat va moliyaviy ta'minlanish manbalari (74-modda), ularning faoliyatini to'xtatish yoki cheklashda umumiy sudlarning vakolatlari xususida ham so'z yuritiladi. Konstitutsiyada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari ko'ppartiyalilik asosida saylanishlari ta'kidlanadi [1].

Siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarini amalga oshirishda partiya a'zolarining siyosiy xohish va irodalarini ifodalaydilar, davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari tuzishda ishtirok etadilar. O'zbekistonda hozirgi kunda rasman ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan "Adolat" sotsial-demokratik, O'zbekiston Xalq demokratik, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik va O'zbekiston Ekologik partiyalari mavjud.

O'zbekistonda Milliy mustaqillik e'lon qilinishi bilan Birinchi Prezidenti I.A.Karimov boshchiligidagi hukumat mamlakatda demokratik jamiyat qurish maqsadlarini amalga oshirish uchun islohotlar boshlashga azmu qaror qildi. Hali milliy mustaqillik e'lon qilmay turib, ya'ni 90-yillarning boshidayoq Birinchi Prezident I.A.Karimov va hukumat ko'ppartiyaviy tizimini joriy etish, davlat va hukumatdan ayrim jamoat

birlashmalari tuzilmalarini erkin faoliyat ko'rsatishi uchun huquqiy shart-sharoitlar yaratishga doir islohotlarni boshlab yuborgan edi.

“Xattoki, hali sobiq ittifoq davridayoq, xususan, 1991-yilning 15 fevralda o'sha davrdagi qonun chiqaruvchi organ - Oliy Kengash “O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida”gi Qonunni qabul qilgan edi. Qonun sobiq ittifoq davrida totalitar tizimga xos mezonlar asosida kommunistik partiya yo'lbo'shchiligi va rahnamoligida faoliyat ko'rsatgan, shuningdek qayta qurish davrida yangidan tuzilgan siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlari va jamoat birlashmalarini faoliyatini tubdan demokratlashtirish uchun isloh qilish, ular bilan chambarchas bog'lanib ketgan kommunistik mafkuradan butunlay halos bo'lishga, shuningdek jamiyat institutlarini davlatdan ajratishga huquqiy shart-sharoitlar yaratib berdi.

Bu qonunda birinchi marta jamiyat institutlarining demokratik ta'riflari e'lon qilindi: “jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqiy hamda erkinliklarni ro'yobga chiqarish va himoya qilish, fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamoat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish” [3] maqsadida barpo etiladi.

Fuqarolik jamiyatiga xos belgilardan biri bo'lgan jamoat birlashmalarining davlat va uning organlaridan mustaqilligi, ularni davlatdan alohida faoliyat yuritadigan mustaqil tashkilot ekanligi e'lon qilingan edi. Qonunning moddalarida davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashish, shuningdek jamoat birlashmalarining ham davlat idoralari va mansabdor shaxslarning faoliyatiga aralashishini ta'qiqlanishi belgilangan.

Milliy mustaqillikning ilk davrlaridayoq, xalq tarixi, dunyoqarashi, ma'naviyati va milliy merosini teran anglagan Birinchi Prezident I.A.Karimov O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va ko'ppartiyaviylik tizimini barpo etishning Konstitutsiyaviy asoslarini yaratishga alohida e'tibor berdi. 1992 yil 8-dekabrda qabul qilingan yangi va birinchi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ruhiyati va uning moddalarida ifodalangan yangi davlat va jamiyatga xos qoidalar BMT tomonidan 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi va boshqa xalqaro tashkilotlarning demokratik va huquqiy davlatga xos qoidalari bilan hamoxang va uyg'un tarzda tuzilgan edi.

Konstitutsiyaning 69-75-moddalarini o'ziga kamrab olgan “Fuqarolik jamiyati institutlari” deb nomlangan XIII bobi respublikada huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish va bu kabi davlat hamda jamiyat uchun xos bo'lgan ko'ppartiyaviylik tizimini shakllantirishning huquqiy asoslarini tashkil etdi.

Konstitutsiyamizga demokratik qoidalarini kiritilishi siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalarining huquqiy erkinligi va mustaqilligini ta'minlashning kafolati bo'ldi. Bu demokratik qoidalar faqat fuqarolik jamiyati uchun xos bo'lgan tamoyil edi. Konstitutsiyada huquqiy asoslarning yaratilishi bilan jamiyatda ko'ppartiyaviylik tizimini shakllantirish uchun real va aniq shart-sharoitlar yaratildi. Mamlakatda ko'plab siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarini shakllanish jarayonlari boshlandi.

O'zbekistonda Milliy mustaqillik e'lon qilingach, mustaqil davlat tuzilmalarining shakllanishi, O'zbekistonda sobiq shuro mafkurasiga xizmat qiluvchi yakkahokim kommunistik partiya tashkilotlarini butunlay tugatilishi natijasida fuqarolik jamiyatining institutlarini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Mamlakatda xalq manfaatlari va siyosiy irodalarini erkin bildirish va ularni erkin ifoda etish uchun huquqiy asoslar va erkin siyosiy muhit yaratilishiga hamoxang tarzda siyosiy partiyalar ham tuzila boshlandi.

Hozirgi davrda jahondagi demokratiyaning asosiy mezonlaridan biri - saylovlarning ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazilishidir. 1991-yilning noyabridayoq “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida”gi Qonunda saylovning ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazilishi huquqiy jihatlardan e'tirof etildi. Mazkur Qonunda siyosiy partiyalar mamlakat Prezidentligiga nomzodlar ko'rsatish huquqiga ega ekanligi aniq va ravshan ifodalandi.

1991-yil 15-fevralda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida”gi Qonun mamlakatda ko'ppartiyaviylik tizimi shakllanishining huquqiy jihatlarini ta'minlab berishi natijasida mamlakatda yangi siyosiy partiyalarning shakllanish jarayonlari boshlandi. Milliy mustaqillik davrida tashkil topgan siyosiy partiyalardan biri, bu - O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidir. Partiyaga 1991-yilning 1-noyabrda bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida asos solindi.

O'zbekiston XDP o'zini asosan ijtimoiy adolat va ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilar manfaatlarini himoya qilishi, mamlakat siyosiy kuchlarining so'l qanoti sifatida faoliyat yuritishini e'lon qildi. Partiya keyingi o'n yillikdagi turli baxs-munozaralar natijasi ularoq o'zining siyosiy mafkurasini sotsial-demokratiya ekanligini e'lon qildi [5].

Partiya O'zbekistonning mustaqilligini asrash va mustahkamlash, Vatanimizning gullab-yashnashini ta'minlash, mamlakatda fuqarolik va millatlararo totuvlik ijtimoiy barqarorlik har bir oila va butun xalq farovonligiga erishish kabi umummilliy manfaatlarini o'z mafkurasini va siyosiy faoliyatining poydevori, deb biladi. Partiya Dasturida ta'kidlanishicha, xalqimizning mustaqillik, ozodlik, tenglik va adolat, tinchlik hamda totuvlikka azaliy intilishlari partiya mafkurasining tabiiy sarchashmalaridir. U xalqimizga hamisha xos bo'lgan va bugun ham uning mentalitetini belgilaydigan hamjihatlik jamoaviylik prinsiplariga tayanadi, zero ular davlat hamda jamiyat rivojlanishining hozirgi o'tish davridagi qayinchiliklarni yengishda matonat va mardlik manbaidirlar.

Shuningdek partiya butun jahon demokratik harakati so'l qanotida qabul qilingan tenglik, ozodlik, adolat, birdamlik, demokratiya va inson huquqlari, tinchlik prinsiplari hamda xalqimizga xos bo'lgan milliy va umuminsoniy gumanistik hamda demokratik qadriyatlariga amal qilishini asosiy maqsadlardan biri sifatida qabul qilgan. Partiyaning ijtimoiy ideali - O'zbekistonda sotsial demokratik davlatni bunyod etishdir. “XXI asrda kuchli O'zbekiston!” g'oyasi partiyaning bu maqsadga erishishdagi asosiy g'oyasi hisoblanadi.

Partiyaning har bir tuman, shahar, viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasida mahalliy tashkilotlari (kengashlari) bo'lib, ular 10150 boshlang'ich tashkilotini o'zlarida birlashtiradi. 2019-yil 1-yanvardagi holatga binoan partiyaning 378 227 a'zolari mavjud” [5]. 2024-yilda esa O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi a'zolarining jami soni 583 ming 141 nafarga yetgan.

O'zbekiston XDPning “O'zbekiston ovozi”, “Golos O'zbekistana” gazetalarini va “Muloqot” jurnali qisqa davr ichida mamlakatdagi ommaviy axborot vositalari o'rtasida katta ta'sir va mavqega ega bo'lgan markaziy matbuot nashri sifatida faoliyat ko'rsata boshladilar.

O'zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi (SDP) 1995-yil 18-fevralda tashkil topdi. Partiya sotsial-demokratik qarashlarni o'zining asosiy siyosiy mafkurasini sifatida e'lon qilib, o'zining dasturiy maqsadlari va vazifalarini quyidagicha belgiladi:

- O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat barpo etish borasida Vatanga sadoqatli xizmat qiladigan kishilarni tarbiyalash;
- millatlararo munosabatlarni yaxshilash, do'stlik va hamjihatlikni rivojlantirish, har qanday millatchilik g'oyasiga qarshi kurash olib borish, tinchlik va barqarorlikni, milliy hamjihatlikni targ'ib qilish;
- iqtisodiy strategiyani ishlab chiqish hamda uning amalga oshirilishi uchun kurashish;
- respublika fuqarolarining turmush darajasini kutarish, ijtimoiy jihatdan muhtoj aholining muhofazasini ta'minlash borasida takliflar ishlab chiqish va uni amalga oshirish;
- O'zbekistonning jahon miqosida o'z o'rnini egallashi, dunyodagi ilg'or davlatlar bilan xalqaro huquq talablari asosida o'zaro manfaatli aloqalarini rivojlantirish uchun faoliyat ko'rsatish, milliy manfaatlariga mos keladigan tashqi siyosatni qo'llab-quvvatlash” [6].

O'zbekiston “Adolat” SDPning Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyatlarda, shuningdek 174 ta shahar va tumanlarda partiya kengashlari tuzildi. Partiyaning 3005

boshlang'ich tashkiloti bo'lib, ular 93586 mingdan ortiqroq a'zolarni o'z saflarida birlashtirdi.

2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra "Adolat" sotsial-demokratik partiyasining umumiy a'zolari esa 630 ming 338 nafarni tashkil etgan.

Partiyaning markaziy matbuot nashri - "Adolat" ijtimoiy-siyosiy haftalik gazetasidir.

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi (MTDP) 1995-yil 3-iyunda tashkil topdi. Partiyaning ta'xis qurultoyida milliylik ya'ni milliy tiklanish partiyasining siyosiy mafkurasi ekanligini e'lon qilgan holda o'z dasturida quyidagi maqsadlarni belgiladi:

Partiya oliy maqsad - "Milliy tiklanish g'oyasini amalga oshirish yo'lida o'z harakatining asosiy yo'nalishlari deb quyidagilarni belgilaydi: 1) Millatning ma'naviy birligi; 2) Vatan (Turkiston) - yagona oila; 3) Kuchli demokratik davlat; 4) Milliy qadriyatlar; 5) Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va umumjahoniy integratsiya; 6) Zamon kishisi; 7) Milliy istiqbol. Partiya mana shu yo'nalishlar milliy tiklanishimizning mazmuni mohiyatini tashkil etadi, deb hisoblaydi" [7].

Partiya 2008-yil iyun oyida "Fidokorlar" Milliy Demokratik partiyasi bilan qo'shilishi natijasida uning saflari ancha kengaydi. 2024-yilgi ma'lumotlarga binoan O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining umumiy a'zolari soni 392 ming 425 nafarni tashkil etadi.

O'zbekistonda qisqa davr ichida siyosiy partiyalarning siyosiy tizim subyektlari sifatida faoliyat ko'rsatishlari, ularning siyosiy tizimga ta'sir eta olish qobiliyatlarining shakllanishi natijasida demokratik tamoyillardagi ko'ppartiyaviylik tizimi shakllandi. Siyosiy partiyalar jamiyatning instituti sifatida har bir partiya o'zi tayangan ijtimoiy qatlamlar va guruhlar manfaatlarini birlashtirish va ifodalash, shuningdek fuqarolar siyosiy madaniyatini oshirish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolliklarini yuksaltirish sohasida katta ishlarni amalga oshira boshladilar.

Siyosiy partiyalarga yangi vakolatlar berilishi bilan o'z-o'zidan ularning jamiyat oldidagi mas'ulligi kuchaydi. Umuman, siyosiy partiyalar vakolatlarining kengaytirilishi jamiyat siyosiy sohasini erkinlashtirishning yangi bosqichini boshlab berdi.

2003-yil 15-noyabrda O'zbekiston siyosiy tizimida yana bir siyosiy partiya - Tadbirkorlar va ishbilanmonlar harakati - O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi tashkil topdi. Partiyani tuzish tashabbuskorlari asosan mamlakatdagi o'rta qatlam - tadbirkorlar va ishbilanmonlarning ilg'or vakillari bo'lib, partiya o'rta ijtimoiy qatlam siyosiy manfaatlari va irodalarini ifoda etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Tadbirkorlar va ishbilanmonlar harakati - O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining (O'zLiDeP) tashkil etish mamlakatda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish islohotlarining chuqurlashtirish jarayonlari tarixiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo'yildi.

O'zLiDeP o'rta ijtimoiy qatlam g'oyalari va manfaatlari ifodachisi sifatida siyosiy maydonga chiqdi. Shuningdek partiya quyidagi maqsadlarni o'z oldiga qo'ydi: partiyaning siyosiy mafkurasi - liberal g'oyalar va qadriyatlarini keng targ'ib qilish; o'rta ijtimoiy qatlam qarashlarini ifodalovchi liberalizm mafkurasi maqsadlarini, uning xalqaro tajribasini yoyish, shu maqsadlarda partiya mafkurasi tizimini ishlab chiqish; ilg'or demokratik mamlakatlardagi liberal partiyalar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish va ular bilan umummafkuraviy sohalarida hamkorlik qilishni yo'lga qo'yish; partiya g'oyalari boshqa partiyalar bilan mafkuraviy raqobatdoshlik asosidagi saylovlar kampaniyalarida saylovchilar ongi va dunyoqarashiga singdirishga intilish; partiya g'oyasini ifodalovchi tadbirkorlar va ishbilanmonlar vakillari va partiya fidoyilari nomzodlarini parlament, vakillik organlari va ijro hokimiyati organlariga saylanishlari uchun keng faoliyat yuritish [8].

O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasini tashkil etishdan asosiy maqsad mamlakatdagi mulkdorlar ijtimoiy qatlamini siyosiy

kuch sifatida integratsiya qilish, ularning har birida sochilib yotgan siyosiy manfaatlarini partiya timsolida bir joyga to'plash, ana shu paydo bo'lgan katta siyosiy kuch yordamida mulkdorlarning muammolarini bartaraf etishga har tomonlama ko'maklashishga qaratiladi.

Shu maqsadda partiya o'z oldiga turli nazorat idoralari va turli darajadagi mansabdorlarning kichik va o'rta biznes korxonalari faoliyatiga asossiz aralashuviga barham berish sohasida ham aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasini ham qo'ydi.

Tadbirkorlar va ishbilanmonlar harakati - O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining 2024-yil 1-yanvar holatiga jami a'zolari soni 1 million 330 ming 364 nafarni tashkil etgan. Ularning 70 foizini tadbirkorlar va ishbilanmonlar tashkil etadi. Partiya 2003-yil 15-noyabrda boshlab o'zining bosh nashri - "XXI asr" gazetasini ta'xis etgan.

O'zbekiston Ekologik partiyasi - O'zbekistondagi siyosiy partiyalardan biri. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 22-yanvarda ro'yxatga olingan.

2018-yil 14-noyabrda O'zbekiston Ekologik partiyasi mamlakatda tabiiy resurslarni tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish, davlat va jamiyat hayoti uchun muhim ustuvor yo'nalish hisoblangan ekologik siyosat bilan shug'ullanuvchi partiya tuzish bo'yicha shakllantirilgan 100 nafardan iborat tashabbuskor guruh tomonidan chaqirilgan.

2019-yil 8-yanvarda bo'lib o'tgan partiya forumida ta'xis etilgan. O'sha forumning o'zida partiyaning Ustavi va Dasturi loyihalari, Markaziy Kengashi a'zolarini saylash, Markaziy nazorat taftish komissiyasi to'g'risidagi Nizomi, Matbuot organini ta'xis etish, hamda partiyaning vakolatli vakillarini saylash kabi masalalar ko'rib chiqilgan.

Partiyaning asosiy maqsadi mamlakatimizning barqaror rivojlanishiga, ekologik xavfsizligiga erishish, hozirgi va kelajak avlod uchun qulay atrof-muhitni yaratish hamda tabiiy resurslarni saqlashga yo'naltirilgan davlat siyosatini ro'yogba chiqarishni ta'minlash, atrof-muhit muhofaza qilish va tabiiy resurslarni saqlash davlat, jamiyat va mamlakat har bir fuqarosining vazifasi bo'lishiga erishishga ko'maklashishdan iborat.

Partiyaning asosiy g'oyasi mamlakatning ekologik barqaror rivojlanishiga, ekologik xavfsizlikka erishish, hozirgi va kelajak avlod uchun qulay atrof-muhitni yaratish hamda tabiiy resurslarni saqlashga yo'naltirilgan davlat siyosatini ro'yogba chiqarishni ta'minlash, atrof-muhit muhofaza qilish va tabiiy resurslarni saqlash davlat, jamiyat va mamlakat har bir fuqarosining vazifasi bo'lishiga erishishga ko'maklashish partiyaning asosiy g'oyasi hisoblanadi.

O'zbekiston Ekologik partiyasining 2024-yil 1-yanvar holatiga jami a'zolari soni 622 ming 413 nafarga yetgan [9].

Xulosa. Mamlakatda mustaqillik yillarida siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati organlaridan mustaqil ravishda rivojlanishi va keng faoliyat ko'rsatishi uchun ijtimoiy-siyosiy kengliklar yaratildi. Shu bilan birga, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi "hududiy, bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida besh yil muddatga saylanadigan bir yuz ellik deputatlardan iborat" bo'lishi bu qoidani O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonunda mustahkamlab qo'yilishi siyosiy partiyalarning mamlakat qonun chiqaruvchi hokimiyatini shakllantirishdagi rolini oshirdi.

Mamlakatda Milliy mustaqillikning ilk davrida davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar natijasi ulardo fuqarolik jamiyatining muhim instituti bo'lgan siyosiy partiyalarning demokratik qadriyatlar asosida faoliyat yuritishlari uchun huquqiy asoslar yaratildi. Qisqa davr ichida mamlakatda beshta siyosiy partiya tashkil etilib, ko'ppartiyaviylik tizimi siyosiy hayotga kirib keldi. Parlament, Prezidentlik saylovlari va mahalliy vakillik organlariga saylovlar asosan ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazilishi an'anaga aylandi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonuni 1996-y.
3. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi, -Qonuni. 4-son.-T.: Adolat, 1993.-B.155.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning dasturi. 2016.
5. O'zbekiston XDP Dasturi.-T., 2012.
6. O'zbekiston Adolat sotsial-demokratik partiyasining nizomi. -T.,1995.
7. O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasining nizomi va dasturi. -T., 2008.
8. O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi nizomi va dasturi. -T., 2003.
9. O'zbekiston Ekologik partiyasining nizomi va dasturi. -T., 2019.